

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
ELLIKQAL‘A TUMANI
HOKIMI QARORI**



**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ
QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ
ELLIKQALA RAYONÍ
HÁKIMI SHESHIMI**

2022 - yil 29 - yanvar

27-13-194-Q/22

Ellikqal‘a tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-yanvardagi
“Orol dengizining suvi qurigan tubida va Orolbo‘yi hududlarida “yashil
qoplamalar” - himoya o‘rmonzorlarini barpo etishning qo‘shimcha chora-
tadbirlari to‘g‘risida”gi 31-sonli va shu xususidagi Qoraqalpog‘iston
Respublikasi Vazirlar Kengashining 2022-yil 24-yanvardagi 42-13-0-Q/22-
sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash haqida**

Mamlakatimizda ekologik holatni yaxshilash, Orol dengizining suvi qurigan tubi va Orolbo‘yi mintaqasidan ko‘tarilayotgan qum, tuz va chang zarrachalarining salbiy ta‘sirini kamaytirish, ushbu hududlarda qo‘l o‘simliklaridan “yashil qoplamalar” – barpo etish ishlarini izchillik bilan davom ettirish hamda global iqlim o‘zgarishlarining salbiy ta‘sirini yanada yumshatish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-yanvardagi “Orol dengizining suvi qurigan tubida va Orolbo‘yi hududlarida “yashil qoplamalar” - himoya o‘rmonzorlarini barpo etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 31-sonli va shu xususidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2022-yil 24-yanvardagi 42-13-0-Q/22-sonli qarorlari ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan quyidagilar, jumladan:

1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida o‘rmon xo‘jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4850-son qaroriga muvofiq:

ushbu qaror bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida o‘rmon xo‘jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini (keyingi o‘rinlarda - Konsepsiya) 2020-2022 yillarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”da har yili Orol dengizining qurigan tubida o‘rmonzorlar barpo etish chora-tadbirlarini amalga oshirishi belgilanganligi;

Konsepsiyasini 2022-2030 yillarda bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun Vazirlar Mahkamasi tomonidan har ikki yilda alohida-alohida “yo‘l xaritalari” tasdiqlanishi nazarda tutilganligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi;

2) O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Buxoro, Navoiy, Xorazm viloyatlari hokimliklarining Orol dengizining suvi qurigan tubida hamda Orolbo‘yi hududlarida “yashil qoplamalar” - himoya o‘rmonzorlarini barpo etishni (keyingi o‘rinlarda - “yashil qoplamalar”) davom ettirish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilganligi;

3) quyidagilar:

2022-2026 yillarda Orol dengizining suvi qurigan tubi va Orolbo‘yi hududlarida “yashil qoplamalar” - himoya o‘rmonzorlarini barpo etish hajmlari 1- ilovaga muvofiq;

2022-2026 yillarda Orol dengizining suvi qurigan tubi va Orolbo‘yi hududlarida “yashil qoplamalar” barpo etish uchun cho‘l o‘simliklari urug‘larini tayyorlash hajmlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

4) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Buxoro, Navoiy, Xorazm viloyatlari hokimliklari O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi hamda Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi bilan birgalikda Orol dengizining suvi qurigan tubi va Orolbo‘yi hududlarida o‘rmonzorlar barpo etiladigan maydonlarni belgilangan tartibda xatlovdan o‘tkazilishi, bunda:

har yili 10 dekabrga qadar mazkur qarorga 1-ilovada belgilangan ko‘rsatkichlardan kelib chiqib, “yashil qoplamalar” barpo etiladigan maydonlarni ilmiy jihatdan asoslangan takliflarga muvofiq hududlar bo‘yicha aniqlash va ularning xaritasini ishlab chiqish;

o‘rmonzor barpo etish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha er maydonlari belgilangan tartibda doimiy foydalanish huquqi asosida davlat o‘rmon

xo‘jaliklariga ajratilishini tashkil etish;

muayyan maydonda “yashil qoplamalar”ni barpo etish ishlari istisnolarsiz ushbu er uchastkasi davlat o‘rmon xo‘jaliklariga yoki boshqa davlat organlari va tashkilotlariga belgilangan tartibda ajratilganidan keyin boshlanishini nazorat qilish belgilanganligi;

5) O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasiga:

“yashil qoplamalar” o‘z muddatida barpo etilishi bo‘yicha doimiy monitoring yuritish va uning bajarilishini muvofiqlashtirgan holda talab etiladigan cho‘l o‘simliklarining urug‘lari sifatli tayyorlanishini tashkil etish;

Orol dengizining qurigan tubidagi tuproq tarkibini inobatga olib cho‘l va sho‘r tuproqqa moslashgan o‘simlik turlarini, shu jumladan, qumli erlarda cherkez hamda sho‘r hududlarda tamariks va atripleks (lebeda) o‘simliklarini ekish choralari ko‘rish;

Orol dengizining suvi qurigan tubi va Orolbo‘yi hududlarida barpo etilgan “yashil qoplamalar”ning holatini, ularning yashovchanligini monitoring qilish, parvarishlash hamda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlarning natijadorligi yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga va keng jamoatchilikka axborot berib borilishini ta‘minlash belgilanganligi;

6) Quyidagilar Orol dengizining suvi qurigan tubi va Orolbo‘yi hududlarida “yashil qoplamalar” barpo etish bo‘yicha mazkur qarorda belgilangan tadbirlarni moliyalashtirish manbalari etib belgilanganligi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjetining, Buxoro, Navoiy va Xorazm viloyatlari hokimliklari mahalliy budjetlarining prognozga nisbatan oshirib bajarilgan qismi hisobiga ajratiladigan mablag‘lar;

yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

7) Vazirlar Mahkamasining “Orol dengizi tubidagi suvi qurigan hududlarda “yashil qoplamalar” – himoya o‘rmonzorlari barpo etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 15-fevraldagi 132-son qarorida “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati tomonidan “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyatining Moliya vazirligi huzuridagi Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish jamg‘armasi oldidagi qarzdorligi hisobidan O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat

qo‘mitasiga ajratilishi belgilangan 100 mlrd so‘m mablag‘dan 81 mlrd so‘m o‘tkazib berilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

“O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati yuqorida qayd etilgan qarorda nazarda tutilgan mablag‘larning qoldiq qismi bo‘lgan 19 mlrd so‘m maqsadli mablag‘lar 2022-yil 25-yanvarga qadar O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasining hisob varag‘iga o‘tkazib berilishini ta‘minlash belgilanganligi;

8) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Buxoro,

Navoiy, Xorazm viloyatlari hokimliklari Orol dengizining suvi qurigan tubi va Orolbo‘yi hududlarida “yashil qoplamalar” barpo etish uchun:

mazkur qarorning 6-bandi ikkinchi xatboshisida nazarda tutilayotgan mablag‘lar manbasi ajratilishi yuzasidan har yili 10 dekabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va xalq deputatlari Buxoro, Navoiy, Xorazm viloyatlar Kengashlariga taklif kiritish;

qo‘shimcha xodim va ishchilar jalb etilishini, ishchilar oziq-ovqat, maxsus kiyim-kechak va ichimlik suv bilan uzluksiz ta‘minlanishini, cho‘l o‘simliklari urug‘lari zaxirasi jamg‘arish va ekish uchun uzluksiz etkazib berilishini, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish vositalari bilan ta‘minlashni, vaqtinchalik bino va inshootlar qurishni, aviatsiya, aloqa va boshqa xizmatlarni jalb etishni hamda zarur texnika va asbob-uskunalar sotib olishni va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

Transport vazirligi bilan birgalikda, zaruratga ko‘ra, qo‘nish maydonchalari tashkil etilishini, ishchi-xodimlarni hududdagi yashash joyidan “yashil qoplamalar” barpo etish joyigacha bo‘lgan masofaga tashish zarur avtobus va urug‘ tashish uchun yuk tashishga mo‘ljallangan transport vositalari ajratilishini ta‘minlash belgilanganligi;

9) O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Orol dengizining suvi qurigan tubida va Orolbo‘yi hududlarida “yashil qoplamalar” barpo etish hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida ertlarni o‘zlashtirish, sug‘orish, burg‘ulab suv chiqarish, sun‘iy suv havzalari va er maydonlarini tomchilatib sug‘orish tizimini yaratish ishlariga hududiy va tarkibiy tuzilmalarning kuch va vositalarini, budjet va budjetdan tashqari mablag‘larni jalb etish belgilanganligi;

10) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi o‘n kun muddatda 2022 yil davomida Orol dengizining suvi qurigan hududda “yashil qoplamalar” barpo etish maqsadida 4 ta AN-2 samolyotidan (1 ta yo‘lovchi va 3 ta qishloq xo‘jaligiga moslashgan) tegishli shartnomalar asosida foydalanish hamda boshqa jalb qilinadigan texnikalarga dizel yoqilg‘isini xarid qilish uchun – 10 mlrd so‘m mablag‘ni O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga ajratish, 2023-2026 yillarda ushbu maqsadlar uchun zarur mablag‘larni har yili 10 dekabrga qadar ajratish bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga taklif kiritilishini ta‘minlash belgilanganligi;

11) “Hududgazta‘minot” aksiyadorlik jamiyati Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Buxoro, Navoiy, Xorazm viloyatlari hokimliklari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi tizimidagi tegishli o‘rmon xo‘jaliklarini Orol dengizining suvi qurigan tubida va Orolbo‘yi hududlarida “yashil qoplamalar” barpo etish uchun jalb etilgan ishchi-xodimlar joylashgan vaqtinchalik yashash maskanlariga ajratilgan hajmlar doirasida va aholiga belgilangan narx asosida mavsum davomida suyultirilgan uglevodorod gazi bilan ta‘minlash choralarini ko‘rish belgilanganligi;

12) O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi Orol halokatining salbiy oqibatlarini kamaytirish, o‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish hamda o‘rmon xo‘jaligini rivojlantirish muammolarining ilmiy echimini ta‘minlashga qaratilgan amaliy va innovatsion loyihalarni tanlovlar asosida shakllantirib, belgilangan tartibda moliyalashtirilishini tashkil etish belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimi o‘rinbosari (A.Qurbanbaev), tuman O‘rmon xo‘jaligi bo‘limi (Sh.Kenjaev) bilan birgalikda Orol dengizining suvi qurigan tubi va Orolbo‘yi hududlarida “yashil qoplamalar” barpo etish uchun:

qo‘shimcha xodim va ishchilar jalb etilishini, ishchilar oziq-ovqat, maxsus kiyim-kechak va ichimlik suv bilan uzluksiz ta‘minlanishini, cho‘l o‘simliklari urug‘lari zaxirasi jamg‘arish va ekish uchun uzluksiz etkazib berilishini, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish vositalari bilan ta‘minlashni, vaqtinchalik bino va inshootlar qurishni, aloqa va boshqa xizmatlarni jalb etishni hamda zarur texnika va asbob-uskunalar sotib olishni va boshqa tadbirlarni tashkil etish topshirilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda

qoldiraman.

Tuman hokimi



Avezov S. S.